

TARBIYASI OG‘IR VA PAST O‘ZLASHTIRUVCHI O‘QUVCHILAR BILAN ISHLASHNING PSIXOLOGIK VAZIFALARI

Tulyaganova Munisaxon Mirshaxidovna
Toshkent shahar Olmazor tumani 219-maktab psixologi

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada tarbiyasi qiyin va bo‘sh o‘zlashtiruvchi o‘quvchilar bilan ishlashni tashkil etish, o‘quvchilar faoliyatini stimullashning metodik imkoniyatlari hamda pedagogik shart-sharoitlari xususida so‘z yuritilgan.

Kalit so‘zlar: pedagogika, baholash, bo‘sh o‘zlashtiruvchi o‘quvchilar, stimullashtirish, rag‘batlantirish, ijodkorlik.

KIRISH.

Madaniy-ma‘naviy boyliklarsiz, ta‘lim tizimisiz jamiyat yashay olmaydi. Boshqacha qilib aytganda, ta‘lim oliy darajadagi ahamiyat kasb etadigan ijtimoiy institut bo‘lib hisoblanadi.

Bolalar nimani istashadi – bu o‘qituvchining olidida turgan bosh masala bo‘lib hisoblanadi. Agar biz sichqonni tutmoqchi bo‘lsak, qopqonga qip-qizil bo‘lib pishgan gilosni qo‘ymaymiz, balki pishloq bo‘lagini qo‘yamiz, ya‘ni bunda o‘z istagimiz va ta‘bimizga ko‘ra emas, balki kemiruvchilarning ta‘bidan kelib chiqib ish yuritimiz. Shuni mudom yodda tutishimiz va anglashimiz lozimki, faqat biz nimani istashimizgina muhim emas, balki bolalar nimani istashlari ham juda muhimdir. Uni sindirishga va qayta qurishga urinmang: u o‘z xohish-istaklari uchun aybdor emas. Tarbiyaning tabiatga moslanganligi g‘oyasini yodda tuting. O‘qituvchining vazifasi – agar pedagogik maqsadlarga mos kelmasa, intilishlarning yo‘nalishini o‘zgartirish.

Agar biz bolalarning chekmasligini istasag-u, biroq o‘quvchini chekish istagi tark etmasa, unga har qancha pand-nasihat qilsangiz ham foydasi bo‘lmaydi. Bolalarni qo‘rqitish uchun odatda ko‘p misol qilib keltiriladigan “nikotindan o‘lgan ot” sizga yordam bermaydi. Ammo siz o‘quvchingizda musobaqada g‘olib bo‘lish, futbol jamoasiga qo‘shilish yoki sinfdagi bir go‘zal qizning nazariga tushish istagi borligini bilib qolsangiz, unga tushuntiringki, chekish bu borada muvaffaqiyatsizlikka uchrashiga sabab bo‘lishi mumkin.

Qiziqishlar va mayllarni hisobga oling. Tushunish – kechirish demakdir, degan hikmat bor. O‘quvchini agar o‘qituvchi tushunmasa, kim tushunadi? O‘quvchilar orasida hech narsaga qiziqmaydigani bo‘lmaydi. Bu allaqachon hammamiz uchun ma‘lum bo‘lgan aksioma bo‘lsa ham, hamon biz o‘quvchilar qiziqishlarini hisobga olishni o‘rganmaganmiz.

O`qish-o`rganish va o`z-o`zini takomillashtirishning kuchli stimuliga nisbatan qiziqish uyg`otishning juda ko`p qo`shimcha vositalari borligini unutmash kerak. Shulardan biri bolalarning yorqin obrazlar, va formalarga bo`lgan qiziqishlariga asoslanadi. Intellekt hissiy kechinmalar ta'siriga tez tushib qoladi va o`quvchi unga ko`proq ta'sir ko`rsatib turgan xatti-harakatlarni bajarish uchun yo`l va bahona qidira boshlaydi. Qiyin vaziyatlarda shakldan mazmunga, his-tuyg`udan mantiqqa qarab borish kerak bo`ladi. Shunday yo`l tutsangiz bolalarni o`z maqsadlaringizga qiziqtirish imkoniyatingiz katta bo`ladi. O`z g`oyalaringizni dramalashtiring, – deb maslahat beradi D.Karnegi, – ularni samarali va yorqin shaklda etkazing.

O`quvchilaringizni qiziqtiradigan narsalar haqida gapirishga harakat qiling, to`g`rirog`i ishni shundan boshlang. Bolalarning qiziqishlari, fikrlari, baholariga nisbatan hurmat bilan qarang. Mayli, ko`proq bolalar gapirishsin. Ba'zi bir masalalarda sizda ma'lumotlar etishmasligidan cho`chimang, o`quvchilar bir muddat sizning "o`qituvchingiz"ga aylansalar ham mayli. Yodda tuting: sizning maqsadingiz - o`quvchilarning qiziqishlari yo`nalishini tarbiya va didaktik maqsadlarga tomon burish.

O`rtacha odamni butun dunyo bo`yicha o`z ismi boshqa barcha ismlardan ko`ra ko`proq qiziqtiradi. Biz har qancha ta'qiqlab qo`ymaylik, baribir bolalarning devorlarga, partalarga, daraxtlarga ismlar, laqablarni o`yib yozib qo`yganiga ko`zimiz tushadi. Bolalardagi bu kuchli istakni stimul o`rnida qo`llaymiz. Sinf doskasiga, plakatlarga katta-katta harflar bilan alohida ajralib turadigan bolalarning ismlarini yozinglar, deb topshiriq bersangiz, bolalarda sizning predmetingiz, shaxsingizga nisbatan qiziqish paydo bo`lishiga erishishingiz mumkin.

O`quvchining niyatini bilishga harakat qiling. Niyat ehtiyoj asosida paydo bo`ladi. Masalan, o`quvchi fermer bo`lishni niyat qildi deylik. U har kuni xo`jalikda biror bir ish qilishni niyat qiladi. U hamma narsani o`ylab qo`ygan, rejalashtirgan, hatto vaqt byudjetidan bir qismini shu ish uchun ajratgan. O`ylab ko`ring, agar qo`pol ravishda uning rejalarini buzib qo`ysangiz nima bo`ladi. Agar o`qituvchi o`z ishlarini belgilab qo`ygan bolaga rejalarini o`zgartirib yuboradigan topshiriq bersa, u muvaffaqiyatsizlikka uchraydi. Shunday – ikki yo`ldan birini tanlash vaziyatiga tushib qolgan o`quvchining xulq-atvorida keskin o`zgarishlar paydo bo`ladi.

O`quvchilarga o`z oldilariga qo`ygan niyatlariga erishishlari uchun yordam berish yo`lini qidiring. Gap shundaki, ko`pincha niyat vaziyatli motivlar ta'sirida vujudga keladi va o`quvchi bu niyatini amalga oshirishi uchun kuchi etish-etmasligi haqida o`ylab ham o`tirmaydi. Hayotda bunday voqealarni tez-tez uchratib turish mumkin. Masalan, o`quvchi onasining zorlanib yalinishlari, ko`z yoshlariga azbaroyi achinganidan o`z xulq-atvorini o`zgartirishga ahd qiladi. Ammo mavjud vaziyat, muhit uning imkoniyatlaridan ko`ra kuchliroq, o`ylagan niyatini amalga oshirish uchun uning kuchi etmaydi. Bergan va'dasining ustidan chiqmaganligi uchun uni ortiqcha

tergamang. Yaxshisi uning ko`nglini ko`tarib, unga aniq va kuchi etadigan maqsadlar qo`yishga yordam bering. Agar maqsadlar murakkab va unga erishish uchun uzoq vaqt talab etiladigan bo`lsa, uni amalga oshirish uchun qanday qilib, sekin-asta harakat qilish lozimligini tushuntirib boring.

O`quvchining hurmatga sazovor bo`lish istagini rag`batlantiring. Hurmate'tibor qozonish istagi hamma odamda mavjud bo`ladi. Ko`pgina bolalar bilim uchun emas, balki e'tiborga tushish uchun o`qishga harakat qiladilar. Ularni yuqori darajadagi raqobat muhiti o`ziga tortadi. Agar bu stimul o`quvchi ongida ildiz otib, o`rnishib qolgan bo`lsa va ta'lim jarayoniga ijobiy ta'sir ko`rsatsa, undan to`g`ri foydalanishga harakat qilish kerak.

“Odamlar nazariga tushish” dan umidini uzgan, o`z-o`ziga nisbatan past baho beradigan o`quvchilarga qanday qilib shu “kasallik”ni yuqtirish mumkin? Bu o`rinda turli xildagi hissiy-irodaviy sohalarga murojaat qilishga va turli xildagi nostandart qarorlar qabul qilishga to`g`ri keladi. Masalan, o`quvchiga “dushmanlarini o`ldirish”ga yordam bering. Ko`pgina odamlar o`zida mavjud bo`lgan qo`rquv va irodasizligi tufayli o`z imkoniyatlarini, layoqatlarini namoyish eta olmay qolib ketganliklarini o`quvchiga tushuntiring. Tish doktoriga borib qiynalgandan ko`ra, tishsiz qolgan osonroq emasmi?!

O`quvchini uni cho`chitadigan muhitda yolg`iz qoldirmang, toki u bunday vaziyatda yo`l topishni o`rganib olmaguncha. O`quvchi doska oldida javob berishga qo`rqsa, u bilan yakkama-yakka tarzda mashq qiling. Sizing vazifangiz – o`quvchida o`ziga ishonch hissini paydo qilishga yordam berish. Faqat shundan so`nggina u mustaqil ravishda “dushmanlar bilan jangga” kira olishi mumkin. Shuni unutmangki, xavotirlik darajasi yuqori bo`lgan o`quvchilarning 75% i yangi tanbehlaru kundalik daftardagi yozishmalarni emas, balki, aynan, sizning qo`llab-quvvatlashingizni kutib turadi.

O`quvchi xatti-harakatlari oqibatini ko`rsating. Tadqiqotchi A.Gavrilova turli yoshdagi o`quvchilarga maxsus tuzilgan matnni o`qib, uni davom ettirishni topshiradi. Bu matnda bir bola o`ziga sovg`a sifatida berilgan kuchukcha o`zining oldingi xo`jayinini qo`msayotganligini sezib qoladi. Bu vaziyatda bolaning oldida ikki yo`l – kuchukchani o`z egasiga qaytarish yoki o`zida qoldirish shartidan birini tanlash turibdi. O`quvchilar matnni davom ettirib, bola bu kuchukchani oldingi egasiga qaytaradimi yoki o`zida qoldiradimi, shuni yozishlari kerak edi. Bu tajribada ishtirok etgan o`quvchilarning deyarli hammasi “bola kuchukchani o`zida qoldirishi kerak”, – deb yozishgan. O`quvchilarda qiyin ahvolda qolgan hayvonlargagina emas, hatto odamlarga nisbatan ham hamdardlik bildirish hissi yo`qligi aniqlangan.

Bu nimadan dalolat beradi? Axloqiy jihatdan noqislikni, hissizliknimi? Faqat bunigina emas. Bizning o`quvchilarimiz o`zini bironing o`rniga qo`yib ko`rish, uning kechinmalarini his etishga o`rganmaganlar. Ular o`z xatti-harakatlarining oqibatlari

haqida o`ylab ko`rish, unga baho berishga odatlanmaganlar. Agar pedagog vaqtda va ishonarli ravishda o`z o`quvchilarining ko`zini ochib qo`ysa, u o`quvchi xulq-atvorini yaxshi tomonga o`zgartirishning qo`shimcha va samarali stimuliga ega bo`ladi.

Tajribali pedagoglardan biri bilan suhbatlashganimizda, u shunday dedi: “Men Olimjonga hech qanday bilim, malaka, ma’lumot talab etilmaydigan faoliyat turlari haqida bir nechta hayotiy misollar keltirishni taklif etdim. Agar shu topshiriqni bajara olsa, men unga o`z predmetimdan ijobiy baho qo`yishga va’da berdim. Men uchun kutilmaganda Olimjon mening savolimga javob bera olmasligini aytdi. Demak, bizning o`zaro suhbatlarimiz unga ta’sir o`tkazibdi. U darslarda ancha yaxshi natijalar ko`rsata boshladi. Keyinchalik unga e’tibor qaratgan yagona kishi ekanligimni u tan oldi”.

O`quvchining qadr-qimmatini joyiga qo`ying. O`quvchida tashabbuskorlikni hamda unda bor bo`lgan barcha ijobiy fazilatlarni uning qadr-qimmatini joyiga qo`yish orqali rivojlantiring. Agar sharoit shuni talab qilsa, biroz yolg`on ishlatishdan ham qo`rqmang. Chunki aldash – bu kishiga aynan u o`zi haqida o`ylaganlarini gapirish demakdir. Siz ishlatgan bu beozor yolg`on tarbiyalanuvchida yangi kuch-g`ayrat oqimini paydo etishi mumkin.

Agar o`quvchilarning yutuqlariga chin dildan xursand bo`la olsangiz, ularni qadrlay olsangiz, albatta, juda yaxshi bo`ladi. Ammo pedagoglarimizning qo`l ostidagilar juda ko`pchilik bo`lganligidan, ba’zan ularning har biri uchun kerakli va betakror so`zni topib aytish qiyin bo`lib qoladi. Bu o`rinda aktyorlik qilishga to`g`ri keladi.

Ko`plab tadqiqotlar natijasida o`quvchilarning qadr-qimmatini joyiga qo`yish va mavjud imkoniyatlarini tan olishning beqiyos samara berishi isbotlangan. Nafaqat bolalar, balki kattalar ham, ularning qadri-qimmatini e’tirof etilishini yaxshi ko`rishadi.

Insonlardagi ana shu zaiflikni e’tiborga olib, har doim ham tanqid qilishdan ko`ra maqtash afzalroq ekanligini e’tirof etiladi. Shuning uchun ham quruq xushomad qilishdan qochgan holda, kishidagi ijobiy jihatlarni tan olishga harakat qilish kerak.

Shundagina tarbiyalanuvchingizda siz istagandek inson bo`lish imkoniyati ortadi. “Siz birovga avval o`zingiz olishni istagan narsani bering”, – deb maslahat beradi D. Karnegi.

Ayniqsa, arziyas narsalarga yopishib olishdan, bo`lar-bo`lmasga tanbeh berishdan qochish kerak. O`quvchini tushunishga chin dildan harakat qiling, narsalarga uning ko`zi bilan qarang.

O`quvchining yutuqlarini ma’qullang. “Obrazli qilib aytganda, yaxshi bajarilgan ish uchun bolaning elkasidan qoqib qo`yish, uni sidqi dildan mehnatni davom ettirishga stimullashtiradi”, – deydi amerikalik pedagog A. Dreer. Ma’qullovchi so`z, imo-ishora, xatti-harakatlarni faqat eng yaxshi o`quvchilarga emas, balki o`quv mehnatida o`z shijoatini namoish eta olgan barcha o`quvchiga nisbatan yo`llash talab etiladi. Shunday holatlar ham bo`lganki, o`qituvchining past o`zlashtiruvchi

o`quvchiga bergan oqilona ma`qullovchi bahosi juda katta ijobiy ta`sir o`tkazgan. Tadqiqotlarning ko`rsatishicha, ijodkorlikka yo`llovchi asosiy motiv – bu kishining o`z faoliyati natijasini yaxshilashga qaratilgan xatti-harakatidir. Bu holat xuddi kishining o`zi bilan o`zi musobaqalashib, oldin erishgan natijasidan yanada yaxshiroq natijaga erishish uchun tirishishiga, paydo bo`lgan muammoni nihoyatda ajoyib yo`llar bilan hal etishga urinishiga o`xshaydi.

Muvaffaqiyatga intilish istagining kuchliligi ba`zan boshqa maqsadlarni to`sib qo`yadi va ular erishish qiyin bo`lgan g`oyaga aylanadi. Kompyuter xakerlari (kompyuterning oldida juda ko`p vaqtini o`tkazadigan yoshlar) – boshqa barcha ishtiyoqlarni so`ndiradigan xatti-harakat bo`lib, undan bolani boshqa mashg`ulotga e`tiborini qaratish maqsadida foydalanish mumkin.

Har birimiz o`quvchi muvaffaqiyati ahamiyatini chetlab o`tadigan barcha stereotiplardan qochib, sinfga kirayotganimizda shuni unutmasligimiz kerakki, agar yutuqni rag`batlantirishning hissiy ahamiyati, xatolari uchun jazolashning hissiy ahamiyatidan afzalroq bo`lsa, muvaffaqiyatga intilish shakllanadi va kuchayadi. Agar, aksincha, jazolashning hissiy ahamiyati rag`batlantirishnikidan ko`ra yuqoriroq bo`lsa, bora-bora o`quvchida muvaffaqiyatsizlikdan qochish istagi shakllanadi. Shu tariqa faqatgina ota-onasidan gap eshitmaslik va o`qituvchisini uyaltirib qo`ymaslik uchungina o`qiydigan o`quvchilar paydo bo`ladi.

Ishingizning ta`sirchanligini oshiring. Qiyin va uncha o`ziga jalb etmaydigan o`quv faoliyatini qanday qilib o`quvchilar uchun qiziqarli va istalgan mashg`ulotga aylantirish mumkinligi to`g`risida novator-pedagoglarda juda qiziqarli g`oyalar mavjud. Oila tarbiyasi to`g`risidagi qo`llanmada berilgan bir materialdan namuna keltiramiz. Chunki bu misol qanday qilib bola uchun bajarish uncha yoqimli bo`lmagan ishga uni stimullashtirish mumkinligini ko`rsatadi.

Idish-tovoqlarni yuvish qiziqarli va obro`li ish deb kim ayta oladi? Ammo shunday kishilar ham borki, ular uchun idish-tovoq yuvish shunchaki qiziqarli emas, balki sevimli mashg`ulot bo`lib hisoblanadi. Bunday munosabat qanday qilib paydo bo`lishi va shakllanishi mumkin degan savolga yoshi kattaroq bir ayol shunday javob beradi: “Men hali yoshgina bola bo`lgan vaqtimda onam agar aqlli qiz bo`lsam, menga idish-tovoqni yuvishga ruxsat berishini aytar edi. Bunday mukofotni qo`lga kiritish uchun men o`zimni yaxshi tutishga harakat qilar edim”. Bu o`rinda mukofot sifatida taqdim etilgan idish-tovoq yuvish ishi, haqiqatdan ham, kichkina qizaloq tomonidan mukofot sifatida qabul qilingan. Axir, aslida “mukofot” sanalmaydigan narsa bilan mukofotlashmaydi-ku?

Ishingizning qiziqarli bo`lishida o`quvchilarning xatosi ham, aniqrog`i sizning xatolarga munosabatingiz ham yordam berishi mumkin. O`quvchilarning xatolaridan maksimal darajadagi stimulni toping: “Ajoyib xato!”, “Haqiqatga olib boruvchi xato”, “Rahmat, sening fikring unchalik to`g`ri bo`lmasa ham, u mulohaza yuritishga

undaydi”, O`quvchi kuzatishlarining aniqligi va nozik tomonlarini har jihatdan ta`kidlang: “Men ham senday bo`lganimda, shunday deb o`ylar edim...”, “Avvallari men o`ylardimki, ...”. Shunday qilingki, siz bolalarni undagan narsa u qadar qiyin emasligiga ular ishonch hosil qilsinlar. “Rahmat sizga bolalar, siz bugun menga katta yordam berdingiz”, – deb darsdan so`ng o`zining 6 yoshli o`quvchilariga minnatdorchilik izhor etadi, Sh. A. Amonashvilli.

Ba`zida o`quvchilaringizga nisbatan “kerak” degan so`zni ishlating. Garchand bu stimul maktab amaliyotida uzoq vaqt davomida qo`llanib kelingan yagona stimul bo`sa ham, uning amal qilish imkoniyatlari hali ham cheklangani yo`q. Albatta, bu stimulga shaxsiy yo`nalish berish kerak (Sen shunday qilishing kerak, Azizbek! Axir sen o`g`il bolasan!). O`quvchi qiyinchiliklarni engib, xuddi kattalardek, matonatli kishilardek ish bajarganligidan zavqlanish hissini tuysin. Bundan tashqari, u topshiriqni bajarganligidan xursand bo`lishi va faxr-iftixor tuyg`usini his etishi kerak. Bular, albatta, “kerak” stimuliga qo`shimcha ravishda amalga oshiriladi.

Vaziyatdan foydalaning. To`g`rirog`i – qulay fursatni boy bermang. Gap shundaki, ko`pincha, stimulni hayotning o`zi, voqealarning rivojlanish jarayoni o`rtaga tashlaydi. Bu kutilmagan, to`satdan paydo bo`ladigan stimullar uzoq ishlab chiqilgan va puxta rejalashtirilgan stimullardan sirayam qolishmaydi. Faqat ularni tezgina payqab olish, ularga moslashish va ishning foydasiga yo`naltirish kerak bo`ladi, xolos.

Murabboni yashirincha yeb qo`yganligi uchun Tom Soyev xolasi tomonidan qanday jazolanganligini eslaysizmi? Xolasi unga jazo sifatida devorni bo`yashni buyurgan edi. Shu payt Tom yaqin orada o`z o`rtog`i Billni ko`rib qoladi va uning xayoliga ajoyib bir fikr keladi. Shu tariqa tomosha boshlanib ketadi. Tom devorga diqqat bilan qaradi-da, qo`liga ish qurolini olib, devorga bo`yoqni surtdi va yana orqaroq borib tomosha qildi. Keyin yana devorga yaqin keldi-da, yana bo`yoq surtdi. Bill uning jig`iga tegmoqchi bo`lib so`radi: “Nima, xolang jazoladimi?” O`z ishiga berilib ketgan Tom savolin ochiq qoldirdi. Shunda Bill qiziqib yaqinroq keldi. Tom esa o`z ishini ishtiyoq bilan davom ettirardi. Shu payt kichkina shumtaka kutgan narsa yuz berdi, - Bill undan “men ham biroz devorni bo`yay”, – deb ruxsat so`radi. Tom bu mas`uliyatli ishni undan boshqa hech kim bajara olmasligini aytib, uni uzoq yalinishga majbur qildi. Oxiri ish shunday tus oladiki, Bill unga eng qimmatli o`yinchoqlarini sovg`a qilishga majbur bo`ladi. Ammo Tomning qarmog`iga faqat Billgina emas, balki okrugning barcha bolalari ilinib qolishadi. Ular Tomni o`zlarining o`yinchoqlari bilan siylab, evaziga devorni bo`yash “baxtiga” musharraf bo`ladilar. Faqat bo`yoqning tugab qolganligi sababli Tom ishni to`xtatishga majbur bo`ladi.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, bilimlarni o`zlashtirish jarayoni murakkab psixik operatsiyalar bilan bog`liq. Ayniqsa, kichik maktab yoshi o`quvchilarining bilimlarni o`zlashtirish jarayonlari o`ziga xos nozik jihatlari bilan boshqa yosh davrlaridan farq qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Karnegi, Deyl. Do'st orttirish va odamlarga ta'sir ko'rsatish. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2010. – 720 b.
2. Overstreet, H. A. 1925. Influencing human behavior. New York: W.W. Norton. 3.
3. Қўзиёв. «Синф раҳбари ишини ташкил этиш ва режалаштириш». Т., 1997 йил. 4. 3 Дреер А. Преподавание в средней школе США. –М., 1986. – С. 54.
3. 5. Bakhtiyorovna I. K. Methodological Conditions for the Organization and Management of Working with Difficult and Idle Students //CENTRAL ASIAN JOURNAL OF LITERATURE, PHILOSOPHY AND CULTURE. – 2021. – Т. 2. – №.
4. 10. – С. 115-119.
5. Рустамова Г. Б. HISTORICAL-MYTHOLOGICAL BASES OF IMAGES ASSOCIATED WITH TREES IN FOLKLORE.
6. Bahronovna R. G. Epic Interpretations of the Image of Trees in Uzbek Folk Tales
7. //European Journal of Life Safety and Stability (2660-9630). – 2021. – Т. 12. – С. 330334.